

MUSIQA DARSLARIDA JISMONIY HARAKATLARNI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS USLUBLARI VA YO'LLARI.

Saxob Karimov, Musiqiy ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada umumta'lim maktablarida o'qitiladigan "musiqa madaniyati" o'quv predmeti tashkiliy uslubiy tuzilishi, mazmuni va mohiyatiga ko'ra o'zida bir necha fanlar mushtarakligini mujassamlashtirgani holda ulardan biri - musiqa darslarini jismoniy tarbiya darslari bilan o'zaro uyg'unlikda tashkil etish o'quvchi-yoshlarning ham ma'nan, ham jismonan, kamolotiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Ma'naviy-axloqiy, umumta'lim maktablari, jismoniy tarbiya, harakatli o'yinlar, ritmik harakatlar, o'yin qo'shiqlar, ma'nan, jismonan, estetik, sifat, samaradorlik, xalqimiz.

Ta'lim sifatini tubdan yaxshilashimiz lozimligi ham prezidentimiz tomonidan alohida ta'kidlab o'tildi. Bundan kelib chiqadiki biz pedagoglar oldida kelgusida katta vazifalar turibdi. Shunday ekan Musiqa darslarini jismoniy harakatlar uyg'unligida tashkil etishning o'ziga hos uslublarini ishlab chiqishni davr taqozo etmoqda. Bu esa musiqa darslarini yanada mazmunli bo'lishida uning sifat va samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib hisoblanadi.

Umumta'lim maktablarida o'qitiladigan "musiqa madaniyati" o'quv predmetiga tashkiliy uslubiy tuzilishi, mazmuni va mohiyatiga ko'ra o'zida bir necha fanlar mushtarakligini mujassamlashtiradi. Hususan, ona-tili va adabiyot, tarix, jismoniy tarbiya, tasviriy san'at bilan bevosita bogliq bo'lgan musiqa nazariyasi va metodikasi, musiqa tarixi, dirijiorlik, vokal, cholg'u ijrochiligi, solfedjio kabi fanlar aloqadorligi imkoniyatlaridan o'z o'rnida o'rinli foydalanish orqali dars samaradorligi va to'laqonliligiga erishish mumkin.

Bizga ma'lumki, umumta'lim maktablarining boshlangich sinflarida musiqa darslari besh tashabbus negizida tashkil etiladi va ular tarkibidagi "Musiqaga mos ritmik va raqs harakatlarini bajarish" faoliyati jismoniy va

musiqali raqs harakatlari uyg'unlugida amalga oshiriladi. Ushbu faoliyat asosan, darsni qiziqarli o'tishi o'quvchilarni diqqatini, ruhan tetikligini, ijodiy faolligini rivojlantirish maqsadida qo'llaniladi. Bu esa o'z navbatida musiqa o'qituvchisidan ham ijodiy izlanuvchanlikni, raqs va jismoniy madaniyatga oid ritmik harakatlardan yaxshi tayyorgarlikka ega bo'lishlikni talab qiladi. Dars jarayonida musiqali-ritmik harakatlarni bajarish davomida bolalarning xar-xil harakterdagi asarlarni idrok etish, asar dinamikasiga, registrlarga mos harakat qilish, temp o'zgarishlarini ilg'ash, kuchli-kuchsiz hissalarini aniqlash, asar ritmiga mos chapak chalish, qadam tashlash, xarakatlarini ikki, uch qisimli shaklga va musiqa frazalariga muvofiq o'zgartirish kabi malaka va ko'nikmalari rivojlantirib boriladi. Raqs harakatlarini bajarish davomida qo'l, oyoq, gavda, bosh, yuz a'zolarini egiluvchanligi, chaqqonligi, tekis va chiroyli bo'lishi bevosita jismoniy harakatlar, mashqlar uyg'unligini talab qiladi. Qo'shiqlar kuylashda unung mazmuniga mos raqs-o'yin harakatlari asarning badiiy-estetik ta'sirchanlik kuchini oshiradi.

Xalqimizning boy musiqa me'rosida juda ko'plab qo'shiqlar, ayniqsa bolalar folklor qo'shiqlari o'zining ijrochilik an'alariga ko'ra o'ziga xos raqs va o'yin harakatlari uyg'unligida ijro etib kelingan. Boshlang'ich sinf musiqa darslarida, ommaviy-madaniy tadbirlarga tayyorgarlik ko'rish, badiiy havaskorlik to'garaklari mashg'ulotlarida bunday qo'shiqlarni o'rganish va kuylashda ularni an'anaviy ijrochilik uslublariga tayanib ish tutish yoki uning yangicha variantlarini yaratish o'quvchilarni xalq qo'shiqlariga, ularni o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytirishga samarali ta'sir etadi, qo'shiqlarni tez, oson o'rganishlariga, xotiralarida mustahkam o'rnashib qolishiga zamin yaratadi.

O'yin-qo'shiqlar xalqimizning o'ziga xos xayot faoliyati davomida, yoshlik davrining muayyan bosqichlariga mos ravishda kichkintoylar olami bilan kattalar dunyosining uyg'unlashuvi ostida shakllanib kelgan. O'z navbatida o'quvchi yoshlarni xalqimizni o'ziga xos o'tmish madaniyati, an'analari, urf-odatlarini, mehnat bayramlari bilan yaqindan tanishib borishlariga, shu bilan

birga jismoniy sog'lom, chaqqon, serxarakat, ziyrak va maqsadga intiluvchan tashabbuskor, barkamol shaxs bolib etishishlariga katta imkoniyat ochib beradi. Bolalar o'yin qo'shiqlari she'riy matn, musiqiy ohangga hamda jismoniy harakatlarni bajarishga moslashgan bo'lib, xar bir qo'shiq o'yin tarzida biror maqsadni ko'zlagan holda ijro etiladi. O'quvchilar bunday qo'shiqlarni kuylash va harakatli o'yinlarni bajarish davomida qo'yilgan maqsadga erishish o'yinda g'olib bo'lish bilan yakunlanadi. Takroriy va izchil suratda yo'lga qo'yilgan bunday mashg'ulotlar bolalarni ham ma'naviy, ruhiy, ham jismoniy takomiliga ijobiy ta'sir etadi. Bolalar o'yin-qo'shiqlaridagi eng muhim hususiyatlar xar bir raqs, o'yin, ohang, aytishuvlar, musobaqa, bellashuv bilan bog'liq ijtimoiy-tarixiy, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan harakatlar yig'indisidan iboratligida ko'rinadi.

Bolalarning eng ko'p ommalashgan "Oq terakmi, ko'k terak" qo'shig'ini olib ko'raylik, ushbu o'yin-qo'shiq boalarda kuchlilik, chaqqonlik, g'oliblikka intilish kabi xislatlarni rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Ushbu qo'shiqni ijro etish xolati quydagicha:

-bolalar teng ikki guruhga bo'linishib, ma'lum masofada qo'l ushlab turadilar. O'yin shartiga ko'ra bir tomon "Oq terakmi, ko'k terak, bizdan sizga kim kerak?"- deb kuylashadi. Qarshi tomondagilar esa boshlovchi guruhdan bir bolani kerakligini aytishadi. Ismi tilga olingan bola yugurib, qarshi guruhdagi bolalar zanjirini (bolalar qo'llarini mahkam bog'lab turishadi) yorib o'tishga harakat qiladi. Yorib o'tgan g'olib sifatida bir bolani o'z guruhiga yetaklab ketadi. O'yin shu tarzda bir guruh yutguncha (bir guruhda bir bola qolgunicha) davom etadi.

-kim oladi-ya, shuginani-ya, qo'shig'i. Bu o'yin qo'shiqni ijro etishda bolalar davra qurib, chapak jo'rligida "Kim oladiya, shuginaniya" deya jo'r bo'lib kuylashadi. O'rtaga do'ppi yoki biror yumshoq buyum qo'yiladiki, o'yin qoidasiga ko'ra talabgor shu buyumni tizzalarini bukmasdan egilib, tishida ko'tarib olishi kerak bo'ladi. Talabgor bola o'z navbatida "Men olamano, shuginani-ya" satrlarini kuylash va chiroyli raqs harakatalari bilan o'yin shartini

bajarishga kirishadi. Bu o'yinda har bir bola o'zining chaqqonligi, raqsga tushishi mahorati bilan birga jismoniy jihatdan nimalarga qodir ekanligini ko'rsatishga harakat qiladi. Bunday qo'shiqlar sirasiga "Choriy-chanbar", "Chillak", "Quyoniim" , "Lanka", "Ayajon", xorazmcha "Oq sholi, Ko'k sholi" kabilarni kiritish mumkin.

Ko'rinadiki, musiqa darslarini musiqali va jismoniy harakatli o'yinlar orqali tashkil etishning keng imkoniyatlari mavjud. Ulardan musiqiy harakatli o'yinlar, qo'shiqlar ijro etishda unumli foydalanish, raqs va o'yin harakatlarini yangi-yangi variantlarini yaratish, musiqiy ta'lim sifati hamda samaradorligini ta'minlaydi, o'quvchi-yoshlarning ham ma'nan, ham jismonan, ham estetik kamolotiga ijobiy ta'sir etadi.

Foydalangan adabiyotlar:

- 1.-H.Nurmatov, N.Yo'ldosheva. O'zbek xalq musiqa ijodi.-T.:Gofur Gulom,2007.
- 2.-Oqilxon Ibrohimov.4-sinf Musiqa darsligi.-T.:Gofur Gulom, 2017.